

Tolibova Mushtariy
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

INNOVATSION G'OYALARNING HUQUQIY ASOSLARI

Anontatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Innovatsiyalarga qaratilayotgan e'tibor hamda ularning qonun bilan qay darajada mustahkamlanganligi haqida bilib olasiz. Hamda Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning davlat rivojlanishidagi o'rni to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, novatio, innovatsion kombinatsiyalar,termin,ilmiy ishlar, marketing, texnikaviy, strategiya, biznes, intellektual mulk,innovator.

Bugungi kunda butun dunyoda yangiliklar yaratish, insoniyat rivoji uchun foyda keltiradigan yangi g'oyalar ustida izlanish, innovatsiyalar kashf etish zamonamizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ho'sh, bugun biz qayta va qayta duch kelayotgan innovatsiya so'zi o'zi qanday ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish") deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi[1]. Bu tushunchaning paydo bo'lishi juda uzoq zamonlarga borib taqalmaydi. Innovatsiya tushunchasi birinchi bo'lib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi. "Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiyalar - Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. Innovatsiyalarning yaratuvchilari esa innovatorlar deb ataladi. Innovatorlar - ilmiy va texnik bilimlar generatori, yangilik yaratuvchilari, individual ixtirochilar, tadqiqot tashkilotlari bo'lishi mumkin.

Respublikasi qonunlarida esa innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma deb izohlanadi [2].

Yuqoridagi tushunchalardan qanday xulosaga kelishimiz kerak? Hayot tarzimizda yaratilayotgan har bir narsani innovatsiya desak to'g'ri bo'larmikan? Aslida innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham innovatsiyalar va yangiliklar yaratishga katta e'tibor qaratiladi va qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat to'g'risidagi qonuni qabul qilingan bo'lib, u Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 19-iyunda ma'qullangan.

Uolter Ayzeksonning "Innovator" kitobida Innovatsiyalar rivojlanishi uchun eng yaxshi atmosfera bu davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan subsidiyalar ajratilgan atmosferadir deb keltiriladi.O'zbekiston Respublikasida ham Davlat ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi. Xususan, ilmiy faoliyatni moliyalashtirishning har xil turlari nazarda tutilgan bo'lib,bular: bazaviy, grant, maqsadli, aralash va nodir ob'yektlarni saqlashni moliyalashtirish kabilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 53-moddasida ham shunday deb keltiriladi: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi"[3]. Innovatsiyalar davlatning har bir sohasida rivojlanish uchun muhim jarayon hisoblanadi.Masalan, iqtisodiy sohada Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo

bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda" deya ta'kidlab o'tgan edilar. Ta'lim sohasida ham innovatsiyalarning o'rni o'zgacha. Jumladan, o'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

Xullas, qaysi soha bo'lmasin innovatsiyalar zamon rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qilaveradi. Faqatgina uni qay yo'nalishda olib borish kishilarning o'ziga havola. Zero, yaxshilikka xizmat qiluvchi qurilmalar ham, vayron qiluvchi qurilmalar ham inson yaratilarning natijasi edi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent. Birinchi jild. 2000-yil
2. O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat to'g'risidagi qonuni. O'RQ-630-son. 24.07.2020-yil. 18-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti". 2023-yil. 32-bet. 53-modda.
4. Uolter Ayzekson "Innovator" kitobi. Alimoff team. 2020-yil.
5. Бабуринов В. Л. Инновационные циклы в российской экономике, 2010.
6. Anarbeyevich, N. T. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTERNET ERKINLIGINING YANGI BOSQICHGA KO 'TARILISHI. IMRAS, 7(5), 416-420.
7. Anarbaevich, T. N. (2023). TA'LIM SOHASIDA AKADEMIK ERKINLIK MUAMMOLARI. IQRO, 2(1), 654-658.
8. Anarbeyevich, T. N. (2023). Theories about the Idea of Freedom and Their Epistemological Analysis. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(5), 118-122.
9. Tursinkulov, N. A. (2021). ERKINLIK G 'OYASINING FALSAFIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 2(6), 831-838.
10. Tursinkulov, N. A. (2024). RAISING INTERNET FREEDOM TO A NEW LEVEL IN UZBEKISTAN. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2(1), 206-212.
11. Tursinkulov, N. A. (2024). PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE IDEA OF FREEDOM. World of Scientific news in Science, 2(1), 360-368.
12. Tursinkulov, N. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISH DAVR TALABI: MUAMMO VA YECHIMLAR. Архив научных исследований, 2(1).